

III.QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Samarqand viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022– yilning yanvar–dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 43 933,0 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 42 105,6 mlrd. so‘m (103,9 % ni), o‘rmon xo‘jaligi 1 540,8 mlrd. so‘m (102,3 % ni), baliq xo‘jaligi 286,6 mlrd. so‘m (83,6 % ni) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,1 % ni tashkil etdi.



43 933,0

Samarqand viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



42 105,6

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



1 540,8

O‘rmon xo‘jaligi


03




286,6

Baliq xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, % da




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2022– yilning yanvar–dekabr oylari yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 95,8 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,5 % o‘rmon xo‘jaligi, 0,7 % baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2022– yilning yanvar–dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kattaqo‘rg‘on (5 393 mlrd. so‘m) va Urgut (4 708 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on shahrini (227 mlrd. so‘m) va Samarqand shahri (309 mlrd. so‘m) misol keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur‘atlari Oqdaryo tumani (105,5 %), Narpay tumani (105,3), Qo‘shrobot tumani (105,3), Nurobod (105,0 %), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, %




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022– yilning yanvar–dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 41 833,9 mlrd. so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlar 22 721 870,2 mlrd. so'm (103,5 %) ni, chorvachilik mahsulotlari 19 112 054,0 mlrd. so'm (104,4%) ni tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi (%)

54,3 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




45,7 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 57,3 % – dehqon tomarqa xo‘jaliklariga, 39,5 % – fermer xo‘jaliklariga, 3,2 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da



2022– yilning yanvar–dekabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Bulung‘ur tumanida (50,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (99,8 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Jomboy tumanida (15,4 %) qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida mavjud emas, dehqon tomarqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Oqdaryo tumanida (45,3 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urgut tumanida (0,0 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2022– yilning yanvar–dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajm 22 721 870,2 mlrd. soʻmni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil etdi. yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 54,3 % ni tashkil qildi.

Don jami


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon tomarqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 842 923,0 tonna don (2021– yilning yanvar–dekabriga nisbatan 101,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Don yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don yetishtirishning umumiy hajmidan 99, 5% fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati hududlari bo'yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna





Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon tomarqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 665 878,0 tonna sabzavotlar (2021–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 101,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 58,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming. tn.




O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon tomarqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7185,6 ming tonna kartoshka (2021– yilning yanvar–dekabriga nisbatan 7,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 58,1% dehqon tomarqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati hududlari bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon tomarqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 166,4 ming tonna poliz ekinlari (2021–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 6,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmidan 44,3 % dehqon tomarqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati hududlari bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon tomarqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 368,9 ming t. meva (2021–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 6,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmidan 47,4 % i dehqon tomarqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati hududlari bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon tomarqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 625,3 ming tonna uzum (2021–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 3,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 60,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha uzum yetishtirish
hajmi, tonna**




Chorvachilik



2022– yilning yanvar–dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 19 112,1 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 45,7 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha choratadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 3132,1 ming tonna go‘sh (2021– yilning yanvar–dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko‘p), 1378,4 ming t. sut (4,3 % ga ko‘p), 1682,6 mln. dona tuxum (6,9 % ga ko‘p), va 1682,6 t. baliq (-6,1 % ga kam) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon tomarqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 313,2 ming tonna go'sht (2021– yilning yanvar–dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko'p), yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 81,0 % dehqon tomarqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Samarqand viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon tomarqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1378,4 ming tonna sut (2021-yilning yanvar–dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 90,6 % i dehqon tomarqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon tomarqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1280,9 mln. dona tuxum (2021– yilning yanvar–dekabriga nisbatan 6,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 56,1 % dehqon tomarqa xo'jaliklari faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**Samarqand viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona**

